

TA'BIY FANNI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TA'JRIBALARDAN FOYDALANISH ORQALI O'QITUVCHILARNING KASBIY MAHORATINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Arzimbetova Bibisara Atamuratovna

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Pedagogik mahorat markazi
Aniq va tabiiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchi*

Annotatsiya: *Shu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari tabiiy fan o'qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantirish va bilimlarini kengaytirishda o'qituvchining individual kasbiy mahoratini rivojlantirishda ilg'or pedagogik tajribalaridan foydalanish haqida ma'lumotlar bayon etilgan. O'qituvchilar darslarida pedagogik texnologiya va uslub metodlarni qo'llash yordamida darslarni samarali tashkil etish yo'l-yoriqlari keltirilgan.*

Tayanch so'zlar: *Kasbiy rivojlanish trayektoriyasi, kontent, kritik, kreativlik, kommunikatsiya, kooperatsiya*

Ilg'or texnologiyalarning keng o'zlashtirilishi, uzluksiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan o'qituvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvning joriy etilishi hamda ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalari va zamonaviy o'quv uslubiy majmualarning yaratilishi pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirishda o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga asos bo'lmoqda.

Ta'lim, fan, texnika va texnologiyalarining jahon miqyosidagi yutuqlarini ilmiy asoslangan innovatsiyalarini tadbiq etgan holda pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va samaradorligini ta'minlash yo'nalishidagi mavjud noana'naviy muammolarni ijobiy hal etish borasida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish kabi o'ziga xos muhim vazifalarni yuklaydi.

Bu masalaga chuqurroq yondashish hamda ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish darkor. Chunki bugungi ta'lim-tarbiya jarayoni istiqboldagi taraqqiyotning asosini yaratib beradi.

Ta'lim-tarbiyaning asosiy ma'suliyati esa o'z navbatida o'qituvchilar zimmasiga yuklatiladi. Ularning uzluksiz malaka oshirish kurslarida kompetentligini takomillashtirish bu jarayonni tezlashtiradi. Ustoz o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirishga yordam berishga, kasbiy rivojlanishga yo'nalish bera olishga, nazariyani amaliyot bilan bog'lay olishga, o'qitishning zamonaviy metodlarini o'zining va jamoadagi faol o'qituvchilarning darsi orqali ko'rsata olishga tayyor bo'lishi lozim.

Shuningdek ustoz yaxshi tinglovchi bo'lishi, do'stona muhitni yarata olishi rivojlantirishga yordam berishi o'qituvchining o'z muammosiga o'zi yechim topishiga imkoniyat berishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kuzatishlar davomida o'qituvchining tinglovchilar bilan munosabatini ko'radi, dars jarayoni haqida to'la ma'lumotga ega bo'lib, tinglovchilarning imkoniyatlarini bilib oladi. O'qituvchilarning o'quv jarayoniga yangi g'oyalarni kiritish uchun, kasbiy rivojlanishi va muvaffaqiyatlarga erishishi uchun ularga o'qituvchi tomonidan turli metodik qo'llanmalar berilishi lozim.

Xalqaro ta'lim tizimida o'qitishda 5E modelidan foydalaniladigan ta'lim muassasalarini tashkil etish talab etilmoqda bu talablarni amalga oshirishda 2024-yil 23-oktyabrdagi kasbiy rivojlantirish kuni va kasbiy rivojlantirish soati tadbirlarini o'tkazish talab etilmoqda. Bunda o'quvchilarning malakasini oshirish bo'yicha ilgor pedagogik tajriba yangi metodikani amalga oshirish maqsatida, ya'ni 5 E 4K modelini foydalanib o'qitish talab qilinmoqda bu model 5 bosqichdan iborat bo'lib, zamonaviy metod bo'lib xizmat qiladi.

Bu 5 E modeli boshqa usullaridan farq qiladi. 5E modeli deganda nimani tushunamiz? 5E modelini darslarda qanday qo'llash mumkin? 5E modelining maqsadi nima? O'qish jarayonini yanada takomillashtirish va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi metodik texnologiyalar to'plami. Ushbu model o'z faoliyatini quyidagi 5 bosqichda amalga oshiradi va har bir o'quvchining o'qish jarayonidagi har qanday qiyinchiliklarini bartaraf etishga qaratilgan

1. Engage (Jalb qilish, qiziqtirish): Dars boshida, bu bosqichda o'quvchilarga mavzuga tegishli savollar beriladi va real hayotdagi misollar yoki mashg'ulotlar orqali mavzuga qiziqish uyg'otadi.

O'quvchilarni qiziquvchanlik va motivatsiya bilan ta'lim to'g'risidagi ma'lumotlarni qisqacha ko'rishga va ko'rishga rag'batlantiradi. Bu o'quvchilarni o'z bilimlarini aniqlashga va yangi bilimlar bilan bog'lashga undaydi.

2. Explore (Tadqiq qilish): Ushbu bosqichda o'quvchilar mustaqil tajriba o'tkazish, ma'lumot to'play boshlaydilar, ma'lumotlarni to'plashga kirishadi. Ular guruhlarda ishlaydi va o'quvchilar guruhlarda ishlagan ishlari orqali yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'nalish beriladi. Ushbu bosqichda o'quvchilar mavzu bo'yicha izlanishlar olib boradilar, har bir tajribali o'quvchi yangi masalalarni hal qilishga harakat qiladi. Ularning darsga bo'lgan qiziqishi oshadi. Bu bosqichda o'quvchilarda mavzu bo'yicha tadqiqotlar olib boradi har xil tajribalar orqali muommolarni yechishga harakat qiladi va o'quvchilarda darsga qiziqishini orttiradi. Bu bosqichda o'quvchilar yangi bilimlarni o'rganishlari uchun sharoit yaratish kerak.

3. Explain (Tushuntirish): Ushbu bosqichda o'qituvchilar o'qituvchilarga o'rganilgan ma'lumotlarni taqdim etadi, o'quvchilar o'rganilgan ma'lumotlarni tahlil qiladilar, o'rganilgan yangi bilimlarni o'z so'zlari bilan ifoda etadilar, o'qituvchi o'quvchilarga yo'l-yo'riq beradi va mavzuga tegishli bo'lgan tushunchalarni to'ldirishga harakat qiladilar

4. Elaborate (Rivojlantirish, qo'llash): Ushbu bosqichda o'quvchilar o'rgangan bilimlarini chuqurlashtirib, ularni boshqa sharoitlarda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu bosqichda o'quvchilar yangi bilimlarni amalda qo'llash imkoniyatiga ega

ekanliklarini anglyadilar. Masalan, yangi sharoitga moslashtiriladi va boshqa mavzular bilan bog'lanish, bilimlarni kengaytirish va kerakli sharoitlarda qo'llash va loyiha ishlarini ishlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu erda o'quvchilar ushbu qobiliyatlarni qo'llashda ishtirok etadilar. Boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan xizmatlarda qat'iylashtirilgan kompetensiyalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

5.Evaluate (Baholash): Baholash (evaluatsiya) - bu o'quvchilarni o'qish jarayonida bilimlarni qanday darajada rivijlanganligini baholashda qo'llaniladi.

Bu bosqichida o'quvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini baholash imkoniyatiga ega bo'ladi va o'z bilimlarini sinovda o'tkazadi. O'qituvchilar o'z bilimlarini testlar va savollarni o'tkazish va o'zaro tahlil qilish orqali qanday darajada o'zlashtirganliklarini aniqlash uchun o'quvchilarning bilimlarini tahlil qilishning sifatli usullarini qo'llaydilar. Ularga mavzu bo'yicha bo'shliqlarini aniqlash uchun yordam berish kerakligini aniqlash uchun yordam beradi. Yangi innovatsion yondashuvni O'zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o'rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda 4K tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi. PISA, xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan davlatlar ta'limida o'quvchilarda "4K"ni o'z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko'nikmalarga alohida urg'u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti.

Yangi model yaxshi ishlashi uchun qanday sharoit kerak?

"4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda qo'llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan, muloqot ko'nikmasi esa savol-topshiriqlar va mashg'ulotlar orqali rivojlanadi. Maktablarda bu usullarni ishlatish uchun sharoit yo'q deb aytish noto'g'ri. Yangi yondashuvni qo'llay olish asosan o'qituvchilarga bog'liq. Yangi innovatsion yondashuv natijasini o'quvchining dunyoqarashi, fikrlashi o'sishida ko'rish mumkin. XXI asr o'quvchisi portretida XXI asr ko'nikmalari bo'lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo'llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta'limning asosiy maqsadi – o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

Bu ko'nikmalar nima uchun muhim?

4 K ko'nikmalari bir-biriga chambarchas bog'liq. Bolalar kelajakda muvaffaqiyatga erishishi uchun to'rtta yo'nalish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Ish beruvchilar aynan ushbu ko'nikmalarga ega nomzodlarni qidirishadi. Avvalo o'quvchilarning bilim va qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda o'qituvchining o'zi kasb mahoratidan kelib chiqib, "4K" yondashuvining mazmun va mohiyatini anglab yetishi va dars jarayonida qo'llashi lozim. "4K" yondashuvining asosiy maqsadi komil shaxsni shakllantirish uchun poydevor bo'lgan pedagogik jarayonni takomillashtirish, insonparvarlashtirish, o'quvchining mustaqilligini ta'minlash,

o'qitish jarayonida texnik vositalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishga erishishdan iborat.

4 "K" modeli

1. Kritik (tanqidiy) fikrlash (Critical Thinking);
2. Kreativlik (ijodiy yondashuv) (Creativity);
3. Kommunikatsiya (Communication);
4. Kooperatsiya (Coordinating With Others).

Fizika fanida 9-sinfga qattiq jismlarning erishi va qotishi mavzusini 5E modeli asosida o'tkazish usuli ko'rsatib o'tildi.

№	Dars bo'limlari	Vaqt	Metod	Kompetensiyalar alar	Ko'rgazmali qurollar
1E	Jalb qilish (Engagement)	5 min	Muammoli savol	TK1,TK3,FK1	Dars ishlanma va ko'rgazmali qurollar, Muz bo'lagi, temir mix, sham, kichik fen yoki isitkich
2E	Tadqiq qilish (Exploration)	10 min	Kichik leksiya, guruhlarda ishlash, Ilmiy tadqiqot + taqqoslovchi tahlil	TK2, TK6, FK1, FK2	Elektron do'ska, slayd, tarqatma materiallar
3E	Tushuntirish (Explanation)	10min	Ma'ruza,	TK1, TK2,FK1	Darslik, elektron do'ska, slayd, ko'rgazmali qurallar, vizual laboratoriya
4E	Qo'llash (Elaboration)	15min	Guruhlarda ishlash,	TK1,TK3,TK6,FK1	Slayd, tarqatma materiallar,
5E	Baholash (Evaluation)	5 min	Aqliy hujum, savol-javob, guruhlarda ishlash	TK1,TK3,TK4,FK2	Tarqatma materiallar, savollar kartochkasi

Ta'limiy maqsad: O'quvchilarga qattiq jismlarning erishi va qotishi mavzusi bo'yicha olgan tushunchalaring, nazariy bilimlarini amalyotda qo'llash orqali kompetentsiyalarni shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: Qattiq jismlarning erishi va qotishi mavzusini asosida o'quvchilarga odob-axloq ruxida tarbiya berish va insoniylik fazilatlarini rivojlantirish hamda mehnatga va vatanga bo'lgan muhabbatini shakllantirish

Rivojlantiruvchi maqsad: Qattiq jismlarning erishi va qotishi mavzusida olgan bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish

Tayanch va fanga oid kompetensiyalar: TK1,TK2,TK3,TK6,PK1, PK2

Dars turi: Aralash dars

Dars tipi: Yangi bilim berish.

Dars metodi: Interaktiv metod

Tayanch so'zlar: Erish, erish temperaturasi, isish, sovish, qotish!

Dars shiori: Izlanib ,fikirlab o'rganamiz

Dars moduli: 5E

1.Engage – Jalb qilish

Maqsad: O'quvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otish, qattiq jismlarning erishi va qotishi haqida mavjud bilimlarini faollashtirish.



Faoliyat:

Bajarilishi:

Muz bo'lagini stakanga soling.

Temir mixni qizdirib muz ustiga qo'ying.

So'ngra shamni eritib muz ustiga quying.

Aqliy hujum: O'quvchilarga savollar beriladi:

- Nega temir muz ustida erimaydi?
- Nega sham suyuqlik holatiga o'tdi?
- Bu jarayon qanday nomlanadi?

2. Explore – Tadqiq qilish

Maqsad: O'quvchilar o'z kuzatuvlariga asoslangan holda kislorod haqida bilimlarga ega bo'lishadi.

Qattiq jismlarning erishi va qotishi mavzusini tadqiq qilish uchun sinfdagi o'quvchilar guruhlariga bo'linadi! Har bir guruh alohida o'zlari mavzu bo'yicha quyidagicha tajribali va ilmiy tadqiqot ishlarini o'qituvchi bilan birgalikda mulohaza qilib mavzuni yanada amaliy tajribalar yordamida o'rganadilar!

1-bosqich: Guruhlarga bo'linish (4 ta guruh) Guruh vazifasi tajriba obyekti

1-guruh “Muz erish tezligini o’rganish” Muz bo’lagi .2-guruh “Shokolad qanday eriydi?” Shokolad. 3-guruh “Mum (sham) erish tajribasi” Sham. 4-guruh “Temir qachon eriydi?” Temir (teoretik tahlil)

2-bosqich: Kerakli asbob-uskunalarini tayyorlang.

Belgilang: quyidagilardan nimalar kerakligini belgilang.

Muz bo’lagi, Shokolad, Sham, Temir mix, Termometr, Soat/Timer, Isitgich/Fen, Metall plastinka

Suv harorati (°C)	Muz bo’lagi holati	Erish vaqti (daqiq)
0°C	Sekin eriydi	15 daqiqa
25°C	Tezroq eriydi	7 daqiqa
50°C	Juda tez eriydi	3 daqiqa

5-bosqich: Guruh muhokamasi va savollar

1.Sizningcha, moddaning erish tezligiga nimalar ta’sir qildi?

2.Qanday holatda modda tezroq yoki sekinroq eridi?.....

3.Qotish uchun qanday sharoit kerak bo’ladi, fikr yuriting:

6-bosqich: Guruh xulosasini tayyorlang

Guruh bo’lib quyidagilarga javob yozing:

Biz o’rgangan modda ___ degan modda bo’lib, u ___ daqiqada taxminan ___°C haroratda eridi. Bizningcha, bu modda _____ sababli bunday haroratda eriydi.

3. Explain – Tushuntirish

Maqsad: O’quvchilarga qattiq jismlarning erishi va qotishi haqidagi nazariy bilimlarni tushuntirish.

Tushuntirish:

- Moddaning qattiq holatdan suyuq holatga o’tishi erish deyiladi.
- Kristall jismning erish jarayonidagi temperaturasi shu kristalning erish temperaturasi deyiladi.
- Erish temperaturasidagi kristall qattiq jismning to’la erishi uchun sarflangan issiqlik erish issiqligi deyiladi.

Erish va qotish jarayonining grafik tasviri


Qo’rg’oshin misolida $m=0,1\text{ kg}$

-1930C

kislorod

suyuqlikka

aylanadi



Kislorod qattiq ham suyuq bo’lishi mumkin, lekin, amalda, menga ishoning, bu bizni qabul qilmaydi.

Po'lat qattiq, lekin qizdirilganda suv kabi suyuq bo'ladi. Undan keyin ham po'lat bug'kuzatiladi. Oddiy haroratda kislorod gazga aylanadi. 535°C Haroratda temir suyuq bo'ladi. Oddiy sharoitlarda po'lat –qattiq.

4. Elaborate – Qo'llash

Maqsad: O'quvchilar qattiq jismlarning erishi va qotishi mavzusi haqida olgan yangi bilimlarni amaliy misollar orqali mustahkamlashadi.

1-bosqich: Guruhlarga bo'linish taklifi (Qo'llash + Kengaytirish uchun):

Guruh nomi: Ish mazmuni

1-guruh: "Tahlilchilar" Erishva qotish harorati bo'yicha grafik chizish, tahlil qilish

2-guruh: "Muhandislar" Sovuqni va issiqlikni ushlab turuvchi oddiy model chizmasi

3-guruh: "Ijodkorlar" "Agar shokolad 70°C da erisa..." turidagi badiiy tahlil

4-guruh: "Kuzatuvchilar" Kundalik hayotdan erish/qotish misollarini to'plab, taqdimot

2-bosqich: "Agar... bo'lsa?" metodi (Ijodiy fikrlash)

Topshiriq:

Quyidagi savollarga javob tayyorlab, qisqacha prezentatsiya qilish:

Agar muz 100°C da eriydigan bo'lsa, hayotda nima o'zgarardi?

Agar barcha jismlar bir xil haroratda erisa, nima bo'lardi?

Nima uchun temir 1500°C da eriydi, ammo muz 0°C da?

Harorat oshgan sari moddalarda qanday o'zgarishlar bo'ldi?

3-bosqich: "Mini-loyiha" metodi: "Erishga qarshi kurash"

Metod: Kichik loyiha, yechim taklif qilish

Topshiriq:

Guruhlar quyidagi muammoni yechadi:

"Issiq havoda shokolad yoki muzqaymoq erib ketmasligi uchun qanday qadoqlash texnologiyasi kerak?"

4-bosqich: "Hayotdagi kuzatuvlar" metod Topshiriq:

O'quvchilar har biri quyidagi misollardan kamida 3 tasini tanlaydi va u yerda qanday erish va qotish hodisasi bo'lishini tushuntiradi:

Modda va holat o'zgarishi sababi. Muzqaymoq eritildi. Shokolad cho'ntakda eridi, qor quyoshda yo'qoladi sham yoqildi, Temir eritish zavodi

5. Evaluate – Baholash

a) Dars jarayonida faol qatashgan va guruh ishlarini bajarishda o'zining kreativ fikrlari bilan qatnashgan o'quvchilar baholanadi!

b) O'quvchilar guruhlarga bo'linib quyidagicha baholanadi!

Metod: "Baholovchi kartochkalar" (Interaktiv metod)

Guruh har bir topshiriqni bajargandan so'ng kartochkalarni oladi:

"Bilim kartasi" – to'g'ri tushunchalar uchun

"Kuzatuv kartasi" – tajribani to'g'ri tahlil qilganlar uchun

"Xulosa kartasi" – chuqur, asosli xulosa qilganlar uchun

Kim eng ko'p turdagi kartochka yig'sa – "Tajriba eksperti" deb e'tirof etiladi.

Kartochka savollari:

Maqsad: O'quvchilarning nazariy bilimlarini aniqlash

1. Qattiq jism nima degani? Uning asosiy xossalari nimalar?
2. Erish nima? Qanday hodisaga erish deyiladi?
3. Qotish hodisasi qanday sodir bo'ladi?
4. Harorat o'zgarishi erish jarayoniga qanday ta'sir qiladi?
5. Nima uchun muz 0°C da eriydi, lekin temir 1500°C da?

To'g'ri, aniq tushuntirgan o'quvchi — "Bilim kartasi"ni oladi.

Kuzatuv kartochkasi savollari

Maqsad: O'quvchining tajriba va kuzatuvni to'g'ri tushunish darajasini aniqlash

1. Sizning guruhingiz qanday jismning erishini kuzatdi?
2. Erish jarayonida qanday o'zgarishlar kuzatdingiz?
3. Sizningcha, modda nima sababli tez yoki sekin eridi?
4. Tajribada termometr nima uchun kerak bo'ldi?
5. Qaysi modda eng uzoq vaqtda eridi? Sababi nima?

Aniq tahlil qilgan va sababli javob bergan o'quvchi — "Kuzatuv kartasi" ni oladi.

Xulosa kartochkasi savollari

Maqsad: O'quvchilarning mustaqil fikrlash va chuqur tahlil qilish qobiliyatini baholash

1. Erish va qotish jarayonlarining o'zaro bog'liqligi nimada?
2. Nega kundalik hayotda bu jarayonlarni bilish muhim?
3. Harorat nazorati muhim bo'lgan 3 ta kasb yoki sohani sanang.
4. Erish harorati qanday omillarga bog'liq bo'lishi mumkin?
5. Qattiq jism tez erishi uchun qanday shartlar zarur?

Ijodiy, tahliliy va asosli javob bergan o'quvchi — "Xulosa kartasi"ni oladi.

Foydalanish tartibi:

Har guruh ishidan keyin savollar ustida ishlaydi.

Javoblar og'zaki yoki yozma bo'lishi mumkin.

Har bir javob o'qituvchi tomonidan tegishli rangdagi kartochka bilan mukofotlanadi. Dars oxirida kartochkalar soniga ko'ra "Tajriba eksperti", "Kuzatuv qiroli", "Bilim yulduzi" kabi nomlar bilan rag'batlantiriladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, fanlarni o'qitish metodikasi murakkab o'quv predmetlari qatoriga kirib, keng ko'lamdagi ma'lumot umumlashmasini hamda sintetik aqliy faoliyat majmuasini o'zida mujassamlashtiradi.

Hozirgi davrdagi malaka oshirish tizimida yuz berayotgan metodologik o'zgarishlar, fanning o'qitish metodikasini qaytadan tahlil qilishni talab qiladi. O'qituvchining pedagogik mahorati asosan sinf, auditoriya mashg'ulotlarida ko'rinadi.

Shuni e'tirof etish kerakki, o'qituvchining obrusi faqat uning o'zi uchungina emas balki, yosh avlodning istiqboli uchun ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining

obrusi bo'lsa, yuqorida qayd qilinganimizdek, ko'p jihatdan unung o'ziga bog'liq bo'lsa ikkinchi tomondan, jamoat tashkilotlarining mansabdor shaxslarining o'qituvchi obrusini ko'tarish borasidagi g'amxo'rlikiga ham bog'liqdir.

Pedagogik faoliyat samarasi o'qituvchining pedagogik qobiliyati qay darajada shakllanganiga ham bog'likdir. Bu kasbni tanlagan kishi o'z maqsadiga erishish uchun uzluksiz o'qishi, o'rganishi va izlanishi, ijodiy mehnat qilishi, mustaqil yurtimizda bo'layotgan voqealarni tez anglashi va o'z mehnatining mamlakat uchun qanchalik zarurligini chuqur his qilishi kerak.

Shu bilan birga, o'z kasbiy, mahoratini oshirib borishi, buning uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarning pedagogik, psixologik va boshqa jihatlarini puxta o'rganishga harakat qilishi, o'zi ishlab turgan maktab muhitini va istiqbollarga eng muvofiq bo'lgan pedagogik texnologiyalarni to'g'ri tanlay olishi zarur.

Eng asosiysi esa, barcha o'rganganlarni o'quvchilar bilan darslarda hamda boshqa ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarda yuksak mahorat bilan qo'llay olish zarurligi hozirgi kun talabidir. Bunda barcha ta'lim muassasalari va pedagog xodimlar shu vaqtgacha ko'plab, yuqori samaradorlikka erishib kelayotgan o'zlariga xos ta'lim tarbiya metodlari, shakllaridan voz kechishlari va faqat qaysidir pedagogik texnologiya turini qo'llashga o'tishlari kerak degan xulosaga kelmasliklari lozim.

Pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llash orqali o'qituvchining haqiqiy o'qituvchilik faoliyatiga o'tishi, ya'ni o'quvchini o'qitishi emas, o'quvchilarning bilimlarini o'rganishi, o'zlashtirishi bo'yicha qiyin mehnatiga rahbarlik qilish, ularga qulay, oson, maqsadga tez yetkazadigan metod va texnologiyalardan samarali qo'llash orqali o'z pedagogik mahoratini muntazam oshirib borishiga erishishdan iborat.

Ta'lim rivojlanishi uchun pedagog xodimning yangicha fikrlashi va o'zgarishlarga moslashishi juda muhim. Bugungi kun tadqiqotlarida o'qituvchilarda o'zgarishlarni eng samarali tarzda keltirib chiqaradigan va o'quv mashg'ulotlari, o'quvchilar uchun natijalarni yaxshilaydigan kasbiy rivojlanish tajribasining xususiyatlari hamda mohiyatini aniqlashga qiziqish ortib bormoqda.

Masalan, Dezimone (Desimone) kasbiy rivojlanishning ta'siri bo'yicha bir qator amaliy tadqiqotlarni olib bordi va kamida beshta xususiyat samarali kasbiy rivojlanishga olib kelishini aniqladi: kontent(mazmun)ga e'tibor, faol o'rganish, izchillik, davomiylik va jamoaviy ishtirok. O'rganishlarimizga ko'ra, bizningcha, o'qituvchini samarali kasbiy rivojlantirishga olib keluvchi omillarning barchasi uchun harakatlantiruvchi kuch – uning motivatsiyasi bo'lib, mavjud motiv kasbiga, bilishga va o'z-o'zini rivojlantirishga rag'batlantiradi.

O'qituvchilarni uzluksiz kasbiy o'sishga bo'lgan motivatsiyasi ma'lum bir ta'lim tashkilotining ta'lim amaliyotiga innovatsiyalarni kiritish va umuman butun ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning zarur shartidir. Ko'pgina mahalliy va xorijiy olimlarning fikricha, aynan o'qituvchining to'g'ri rivojlanayotgan motivatsion sohasi muvaffaqiyatli va samarali kasbiy faoliyatning asosi, shu jumladan, shaxsning ehtiyojlari, munosabati va yo'nalishidir. Har bir sohada bo'lganidek, xalq ta'limi

sohasida ham kadrlar malakasini oshirish va ba'zan ularni qayta tayyorlash davlatning ijtimoiy rivojlanishi, ilm-fan hamda texnik taraqqiyot darajasi, ishlab chiqarish va mehnat bozoridagi o'zgarishlarga muvofiq, shuningdek, pedagoglarning shaxsiy talab va ehtiyojlarini hisobga olib, kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini chuqurlashtirish, boyitish, kompetentligini rivojlantirish hamda kasbiy yo'naltirish maqsadida amalga oshiriladi. Ayniqsa, bugungi o'qituvchiga talab oshgan, maktablardagi ta'limning ijtimoiy-iqtisodiy, texnik rivojlanishdan ortda qolayotgani borasidagi tahlillar bot-bot ko'zga tashlanib turgan bir davrda o'qituvchi uchun uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik suv va havodek zarur. Xalq ta'lim xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonida o'quv-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda kurs tinglovchilarining shaxsiy rivojlanish sifatlari va qiziqishlarini inobatga olish muhim sanaladi. O'qituvchilarda motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish orqali pedagogik faoliyatga raqobatbardoshligini ta'minlash ularda kasbiy kompetensiya, kasbiy ko'nikma va malakalarning oshirilishiga erishiladi. Malaka oshirish jarayoni maqsadining aniq va puxta belgilanishi, o'qituvchilarning ehtiyojlariga asoslanganligi uning muvaffaqiyatini ta'minlashga sharoit yaratadi. Bunda shaxsdagi motivatsiya ko'rinishlari hamda o'z-o'zini rivojlantirishga individual yondashishi, shuningdek, o'z maqsadlarini, rejalarini jamiyat, tashkilot va jamoa rejalariga bog'lay olishi yanada zaruriy shartdir. Shu o'rinda individuallik, individuallashtirish, trayektoriya tushunchalariga izoh berib o'tsak. Chunki, malaka oshirish jarayonini individuallashtirish, mavjud trayektoriya asosida harakatga yo'naltirish muammolari o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish bilan shug'ullanuvchi ta'lim muassasalari uchun dolzarb. Ya'ni, tinglovchilar jarayonda nafaqat katta hajmdagi yangi o'quv materiallari, axborotlarni o'zlashtirishlari, balki avvalgi bilim, ko'nikma, malakalarini joriy va istiqbol holatlarga rostdash, faoliyatlarini refleksiv tahlillash, kasbiy ehtiyojlari, qiyinchiliklari, vazifalarining maqbul echimlarini topishlari zarur bo'ladi. Bunday holatda individuallik o'qituvchida motivatsiyani kuchaytirishga yordam beradi. Individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi xalq ta'lim xodim uzluksiz kasbiy rivojlanish muhitining chegaralari, imkoniyatlarini kengaytiradi, o'qituvchilarda o'zligini anglash, namoyon qilish, motivlarini mustahkamlash, motivatsion tayyorlik kompetentligini, shaxsiy-kasbiy sifatlarini uzluksiz rivojlantirishning qulay va samarali vositalarini ongli tanlash hamda amalga oshirishga sharoit yaratadi. Shuningdek, ularning individual imkoniyatlari, alohida o'ziga xosliklari, kasbiy qiziqishlari, qiyinchiliklari, ehtiyojlari, tajribasi, malaka darajasi, shaxsiy motivlari va ijtimoiy mavqeyini inobatga olishga xizmat qiladi. O'qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzish undan ichki motivatsiya, o'zini motivlashtirish, hissiy barqarorlik, bilish jarayonlarini faollashtirish, kognitiv imkoniyatlarini anglash, kasbiy ehtiyojlari, qiyinchiliklari, maqsadlarini baholay olish, loyihalash va o'sish nuqtalarini oldindan mo'ljal olish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishini talab qiladi. O'qituvchining olib borayotgan faoliyati, kasbi va o'quvchilaridan kutilmalari unda motivlar paydo bo'lish sabablarini izohlasa, uning kasbiy rivojlanish maydonini individual trayektoriyasini

yaratishga bo'lgan ishtiyoqi uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini belgilaydi hamda o'ziga xos qarashlarni vujudga keltiradi. Uzluksiz kasbiy rivojlanishda birlamchi sifat har bir o'qituvchining o'ziga xos individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasining mavjudligidir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'qituvchi nashriyot-matba ijodiy uyi. Toshkent 2012 -y.
2. A.Mavlanov, S.Abdalova, L. Yusupova «Zamanoviy pedagogik texnologiya tamoyillari asosida dars mashg'ulotlarini olib borish texnologiyasi» Toshkent 2010y.
3. A.Yunusaliyev «Fizika» universal qo'llanma Toshkent 2015-y.
4. Ziyonet.uz
5. t.me/talimda "Ta'lim yangiliklari"